

## SIRKOR IDISHLARDA, SIRLI ARAB YOZUVLARI

*Termiz arxeologiya muzeyi  
ilmiy xodimlari:*

*Sherzod Radjabov, Gavhar Chubalova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'rta asrlar davrining hunamandchilik sohalaridan biri bo'lgan kulolchilik va uning taraqqiyotida muhim o'rin egallagan arab yozuvlari tushirilgan sirlangan va sirlanmagan idish bo'laklari hamda butun sirkor kosa haqida ilmiy ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** O'rta asrlar davri sirkor lagan gardishlari, sirkor kosa, sopol idish bo'laklari.

Sirli idishlar ishlab chiqarishning ildizlari o'rta asrlarga, arxeologik ma'lumotlarga ko'ra VIII -oxiriga borib taqaladi. Bu jarayonlarning boshlanishiga Arab xalifaligining markaziy hududlaridan G'arb hunarmandchiligi turtki bo'lgan. Movarounnahr hunarmandchiligining rivojlanishi butun musulmon Sharqining, Atlantikadan Xitoygacha bo'lgan yo'nalishi nuqtai nazaridan sodir bo'ldi. Markaziy Osiyoda sopol idishlar ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlarida ishqorli va qalay-qo'rg'oshinli bo'yoqlar ishlatilgan. Qalay oksidi moddalar rang o'chirgichi sifatida ishlatilgan, mis oksidi yashil va feruzaga yaqin rangni bergan bo'lsa, marganets oksidi-to'q binafsha (jigarrang) rangni hosil qilishda ishlatilgan.<sup>1</sup>

Sirli sopol buyumlar ustidagi epigrafiyani o'rganish IX–X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sirlangan idish ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida arab tili va yozuvining mavjudligi, ularning ijtimoiy-ma'rifiy saviyasi bilan bog'liq turli masalalarni hal etish nuqtai nazaridan juda muhim va boshqalar. Ya'ni, ushbu o'ziga xos material nafaqat badiiy madaniyatning xususiyatlarini baholashga imkon beradi, balki mafkura, jamiyatning diniy va axloqiy qarashlari, uning g'oyalari va intilishlari, aholining ma'naviy hayoti haqida gapirishga imkon beradi. 9-asrning 2-yarmi va 10-asrning 1-yarmida epigrafik bezakning eng dastlabki turi qat'iy kufiy ekanligi aniqlangan. Ushbu dekorning o'ziga xos xususiyati shundaki, “alif” va “lom” harflari qat'iy vertikal ravishda, tepalari uchli, boshqa harflar esa aylana bo'ylab chizilgan. 10-asrning ikkinchi yarmida kufiy yozuvidan nasxga o'tish bor. Kulolchilik buyumlaridagi yozuvlarda sezilarli kursiv o'zgarishlar kuzatiladi: tepalarning chapga egilishi, kuchli bosim va nozik chiziqlarga silliq o'tishi, alifning vertikaldan o'ngga og'ishi, ilgaksimon uchlari va “baxt-saodat”, “baraka haqidagi” sevimli qisqa gaplar

<sup>1</sup>Давлат Эрмитажи Тўплами(Санкт-Петербург, Россия), Иккинчи қисм VIII-XV асрлар Мовароуннаҳр санъати. Тошкент 2020. 91 бет.

bo'lib, O. G. Bolshakov ushbu o'ziga xos bezak uchun maxsus atama – “keramik kursivni taklif qildi”.<sup>2</sup> Butun islom dunyosida eng ko'p tarqalgan naqsh bu arabcha geometriklashtirilgan kufiy yoki ancha yumshoq nasxi uslubida yozilgan. Ularning mazmuni asosan idish egasiga baraka, sog'liq, baxt-saodat, boylik, omad tilashidir.<sup>3</sup> IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi. VIII asrda Arab xalifaligi hozirda O'rta Osiyo deb atalmish hududni fatx etib bo'lgan, bosib olingan yerlarda islom dini keng yoyilib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot Arab xalifaligi tartib-qoidalariga butunlay buysundirilgan edi. Xalifalik tarkibiga kiritilgan o'lkalarda faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki, arab tili xalifalikning davlat tili bo'lsa, islom dini uning mafkurasi edi. Shu sababli bu mamlakatlarda arab tilini o'zlashtirishga intilish kuchli bo'lgan. Islomni qabul qilgan aholining arab tili bilan muloqoti, ibodat vaqtlarida Qur'on suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lgan bo'lsa, mahalliy zodagonlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavkuralarini tiklab, uni mustahkamlashning garovi deb hisobladi. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ldi.<sup>4</sup>

Sirli idishlar ishlab chiqarishning ildizlari o'rta asrlarga, arxeologik ma'lumotlarga ko'ra VIII -oxiriga borib taqaladi. Bu jarayonlarning boshlanishiga Arab xalifaligining markaziy hududlaridan G'arb hunarmandchiligi turtki bo'lgan. Movarounnahr hunarmandchiligining rivojlanishi butun musulmon Sharqining, Atlantikadan Xitoygacha bo'lgan yo'nalishi nuqtai nazaridan sodir bo'ldi. Markaziy Osiyoda sopol idishlar ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlarida ishqorli va qalay-qo'rg'oshinli bo'yoqlar ishlatilgan. Qalay oksidi moddalar rang o'chirgichi sifatida ishlatilgan, mis oksidi yashil va feruzaga yaqin rangni bergan bo'lsa, marganets oksidi-to'q binafsha (jigarrang) rangni hosil qilishda ishlatilgan.<sup>5</sup>

Bugungi kunda tomoshabinlar diqqat e'tiborini o'ziga tortib kelayotgan noyob topilmalardan biri, kufiy shakldagi arab yozuvli sirkor lagan bo'lagi hisoblanadi. Mazkur topilma, Termiz arxeologiya muzeyining “O'rta asrlar davri ”ga oid bo'lgan, ko'rgazmalar zalidan o'rin olgan. Sirkor lagan bo'lagi, Dobilqo'rg'on yodgorligidan topilgan. IX-X asrlar. O'lchami: 13x12,5sm. Arxeologik to'liq emas, o'rta. Qizg'ish tUSDagi loydan kulolchilik charxida yasalgan. Materiali: Sopol. Lagan bo'lagining

<sup>2</sup>Ш.Р.Ходжаев, Т.Г.Филимонова, М.Р.Ахметзянов. А.Р.Ходжаев Ремесленное производство средневекового Хугталя институт истории. Душанбе-2020 177 ст.

<sup>3</sup> Мухаммаджон Исомиддинов. Сополга битилган тарих. Тошкент “фан” 1993. 41 бет.

<sup>4</sup> Проф. Р.Х.Муртазаева, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат ва жамият курилиши академияси. Ўзбекистон тарихи. Тошкент 2010. 142 бет.

<sup>5</sup>Давлат Эрмидажи Тўплами(Санкт-Петербург, Россия), Иккинчи қисм VIII-XV асрлар Мовароуннаҳр санъати. Тошкент 2020. 91 бет.

devor qismidan bir bo‘lagi saqlanib qolgan. Lagan bo‘lagiga oq bo‘yoqli rang berilib, ustiga kufiy uslubida yozuv tushirilgan. Laganning yuza qismida jigar rang bilan epigrafik bitikda “saqlangan “al”, “lom”, “kof”, “ba”, “vov”, “lom”, “xe”, “mim”, “ba”, “kof” kabi harflar tushirilgan. Ikki bo‘lakdan iborat qismi ta'mirlangan. Sirkor lagan bo‘lagining birozgina gardish qismi saqlanib qolgan bo‘lib, tashqi tomonga qarab qayrilgan. Yuzasidagi oq sirlarida darz ketgan joylari bo‘lib, sirlarining ayrim joylari uchgan va ko‘chgan.

Yuqorida keltirilgan lagan gardishida bitilgan arab yozuvi kabi, mazkur lagan gardish devor qismida ham turlicha arab alifbosidagi yozuvlarni ko'rishimiz mumkin. Arab yozuvi tushirilgan sirkor lagan bo‘lagi. Dobilqo‘rg‘on yodgorligi. Sherobod tumani. IX-X asrlar. O‘lchami: 13x12,5 sm . Arxeologik to‘liq emas, o‘rta. Qizg‘ish tusdagi loydan kulolchilik charxida yasalgan. Materiali: Sopol. Lagan bo‘lagining devor qismidan bir bo‘lagi saqlanib qolgan. Lagan bo‘lagiga oq bo‘yoqli rang berilib, ustiga kufiy uslubida yozuv tushirilgan. Laganning yuza qismida jigar rang bilan epigrafik bitikda “Lilloh yoki Yo lix” so‘zlari bitilgan bo‘lib, ma'nosi shunday-ki “Alloh uchun, Allohniki, Allohga” degan ma'noni anglatadi. Ikki bo‘lakdan iborat qismi ta'mirlangan. Sirkor lagan bo‘lagining birozgina gardish qismi saqlanib qolgan bo‘lib, tashqi tomonga qarab qayrilgan. Yuzasidagi oq sirlarida darz ketgan joylari bo‘lib, sirlarining ayrim joylari uchgan va ko‘chgan.

Dastlab, kulolchilikda faqat qattiq qo‘l yozuvi ishlatilgan kufiy, IX—X asrlardagi Qur‘on yozuvining bir xil uslubi, eski kufi. Sekin-asta keramik kursiv deb ataladigan maxsus kursiv rivojlanadi.<sup>6</sup> Tarixdan ma'lumki, arab yozuvi islom dinining ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy taraqqiyoti uchun katta xizmat qilgan. Dastlab Qur'oni Karim teri, sopol, yog'och va qog'ozlarga ko'chirilib jamlandi. O'rta asrlarda, hali kitob chop etish ixtiro qilinmagan mahalda har qanday asar qo'lda ko'chirilib, kitob holiga keltirilgan. Shu bois kitob ko'chirish o'sha davrda eng e'tiborli hunar va san'at hisoblangan. Bu hunar egalari xattot yoki kotib deb nom olib, ko'plab allomalarimiz ham o'z asarlarini shu kasb egalariга ko'chirtirgan. Natijada qog'oz ishlab chiqarish, xat turlari, teriga ishlov berish, yog'och va buyumlarga naqsh solish kabi bir qancha islomiy san'at turlari shakllandi. Arab yozuvi turli san'at namunalariga ko'cha boshladi.<sup>7</sup> Arab alifbosidagi yozuvlarni rivojlanishi nafaqat kitoblarda va qog'ozlarda, balki o'sha davr sopol idishlarda ham aks etgan. Jumladan, 33-oyatning oxiri va 34-oyatning boshi bitilgan, sopol idish devor qismida saqlanib qolgan arab yozuvi orqali ham ko'rish mumkin. 1). Arab yozuvi tushirilgan idish bo‘lagi. Xosiyattepa yodgorligi. VIII-IX asrlar O‘lchami: 9x7 Materiali sopol. Arxeologik to‘liq emas qoniqarli.

<sup>6</sup> Государственный музей востока Туркестан. В старых фотографиях и керамике 31 стр.

<sup>7</sup> Шовосил Зиёдов. Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори, тарих фанлари доктори, доцент Марказий Осиё—ислом санъати ўчоғи, Манба: “Халқ сўзи” газетаси 2022 йил 1 ноябрь, № 235 (8297)

Qizg'ish tUSDagi loydan kulolchilik charxida yasalgan. Xumdonda pishirilgan. Idishning devor qismidan bir bo'lagi saqlanib qolgan. Silliqlik qilib ishlangan. Ikki bo'lakdan iborat qismi yelimlanib keyin ta'mirlangan. Yuza qismiga arab alifbosidagi yozuvlar tushirigan. Idish bo'lagining ikki qirrasidan brozginasi saqlanib qolmagan.

2). Arab yozuvi tushirilgan idish bo'lagi. Xosiyattepa yodgorligi. VIII-IX asrlar. O'lchami: 10,5x6 Materiali sopol. Arxeologik to'liqlik emas qoniqlik. Qizg'ish tUSDagi loydan kulolchilik charxida yasalgan. Xumdonda pishirilgan. Idishning devor qismidan bir bo'lagi saqlanib qolgan. Silliqlik qilib ishlangan. Ikki bo'lakdan iborat qismi yelimlanib keyin ta'mirlangan. Yuza qismiga arab alifbosidagi yozuvlar tushirigan. X – XII asrlarga mansub kulolchilik durdonalari islom madaniyati va san'atiga oid o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Qadimiy sopol buyumlardagi epigrafika – kalligrafik usulda chizilgan yaxshi tilak va hikmatli so'zlardan iborat bo'lgan. Aksariyat yozuvlarda xayr-saxovat, insoniylik kabi fazilat ulug'langan. Masalan, "Sahiylik jannat ahlining mulkidir", "Sahiylik solihlarning mulkidir" degan iboralar Somoniylarning kulolchilik buyumlariga bitilgan. Samarqandda yasalgan konussimon kosa yana bir shunday ibora bilan bezatilgan: "Albatta, saxovatlining ahvoli o'zgarsa ham qalbi oliyjanob bo'lib qolaveradi". Kulolchilik mahsulotlaridagi hikmatlar «sadaqa» tushunchasi haqida eslatadi. Unga ko'ra agar imkon bo'lsa, kambag'allarga sadaqa berishi kerak.<sup>8</sup> Bugungi kunda Termiz arxeologiya muzeyining arxeologik kolleksiyasilar orasida arab yozuvi tushirilgan sirkor kosa o'zining noyobligi bilan boshqa ashyolardan ajralib turadi. Sirkor kosa. Eski Termiz qal'asi. IX-X asrlarga oid. O'lchami: h.5,8. Db.18. dg.7 Arxeologik to'liqlik, o'rta. Sarg'ish tUSDagi loydan kulolchilik charxida yasalgan. Materiali sopol. Xumdonda pishirilgan. Yetti bo'lakdan iborat qismi yelimlanib, keyin ta'mirlangan. Kosaning gardish qismi tashqariga qarab bir oz qayrilgan. Kosaning bir yonidan biroz qismi saqlanib qolmagan, saqlanib qolmagan devor o'rniga gips bilan qayta ta'mirlangan. Kosaning tashqi va ichki tomonlari oq rangdagi bo'yoqlik bilan sirlangan. Ichki qismining to'rt tomonida uch qatorli havo rangda bezak sifatida vertikal chiziqlik tortilgan. Ichki qismining markazida arab yozuvi bilan lilloh ليلو so'zi saqlanib qolgan. Kosaning tashqi va ichki tomonlari kirlangan. Tag qismi xalqasimon bo'lib, o'rtasi birozgina chuqurcha qilingan. Barcha musulmon mamlakatlaridagi kabi Markaziy Osiyo kulolchiligida ham bu mamlakatlarda qabul qilingan arab yozuviga asoslangan epigrafik bezaklar mutlaqlik yangi hodisa edi. 10-12-asrlarga oid Samarqand (Afrasiyob qishlog'i), shuningdek, viloyatning boshqa sopol markazlari: Shosh, Farg'ona, Chag'oniyon, Marv, Xorazm

<sup>8</sup>Муножат Мўминова. Ўрта asrlar kulolchilik mahsulotlaridagi bitiklar nimani anglatadi? Yangi Ўzbekiston. 17 mart 2023. 602 soni.

va boshqalarda yasalgan idishlardagi sopol epigrafiyasi alohida mukammallikka erishgan.<sup>9</sup>

Kulollar oddiy gometrik va islmiy naqshlarni o'zaro bog'lab va qaytarish bilan XI-XII asrlarga oid ko'zalarga murakkab naqshlar hosil qilganlar. Idishlarning ayrim qismi arab yozuvlari bilan bezatilgan. Ularning birida «al-yumn» so'zi yozilgan. O'yib chizilgan naqsh bilan bezatilgan. Termiz kulollarining idishlariga o'xshagan idishlar hatto o'sha davr yirik kulolchilik markazlari hisoblangan Samarqand, Marv, Buxoro, Binkentda ham juda kam uchraydi.<sup>10</sup>

Shuningdek, muzeyda arab yozuvlari bitilgan yana bir necha idishlar ham mavjud bo'lib, ana shulardan biri Eski Termizdan topilgan X-XI asrlarga oid topilma arab yozuvi bitilgan lagan bo'lagi nihoyatda nafis qilib ishlangan. Lagan bo'lagining idish devori yuqa qilib ishlangan. Idishning gardish qismi tillo rangli bo'lib, “Men uchun ularning so'zlarini chiroyli qilishidan u yaxshidir” so'zlari bitilgan. Yozuvning rangi oq rangda bitilgan gardish qismidagi yozuvlardan so'ng yana oq rangli aylana chiziq ishlangan bo'lib, mazkur chiziqda yozuvlar tillo rangda bitilgan. Laganning markazida esa oq rangli sirkori to'q malla rangda turli gulli o'simliklar tasviri tushirilgan. Lagan bo'lagining o'lchami: 14x8 sm bo'lib, idishning bir qismi saqlangan. Bundan tashqari yana noyob topilmalardan biri, sirkor kosaning ichki qismiga bitilgan arab yozuvni ko'rishimiz mumkin. XI-XII asrlar. O'lchami: 4,5x5,5 sm bo'lib, Arxeologik to'liq emas. Qulolchilik charxida yasalgan. Materiali: sopol. Kosaning ichki qismi oq rang bilan fon ustiga arab yozuvi vertikal shaklda tushirilgan. Kosaning gardishidan pastki qismiga qadar bir qismi saqlangan. Kosaning tag qismi ichki devorida jigar rang bilan qalampir yaqin qismida arab alifbosida forscha اجابه “ajabalah” so'zi yozilgan bo'lib, ma'nosi “tog'lik”, “tog'lik odam” ma'nolarini anglatadi.

**Xulosa qilib aytganda,** Arxeologik topilmalar uzoq o'tmishdagi asori-atiqalarini to'plash, saqlab qolish, namoyish qilish uchun yaratilgani bilan hamda diqqatni jalb qila olish bilan ham ahamiyatlidir. Ko'p yillar oldin topilgan topilmalarni tadqiq etish bo'yicha olimlar tomonidan olib borilgan ishlar bugungi kunda IX-XIII asrlarda sirlangan va sirlanmagan idishlarda bitilgan arab yozuvlari, qadimiy tariximizni o'rganishda ast qotadi.

<sup>9</sup>Алиева Сурайё Шариповна. Эстетика исламской поливной керамики Узбекистана. доктор искусствоведения, ведущий научный сотрудник институт Искусствознания АН РУз, Республика Узбекистан. International scientific journal «Grail of Science» №5(June, 2021.)

<sup>10</sup>Ш.Пидаев. Кулоллар маҳалласи. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти Аохеология институти. Қадимий Термиз. Тошкент «Фан» 2001. 24-28 бетлар.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Давлат Эрмидажи Тўплами(Санкт-Петербург, Россия), Иккинчи қисм VIII-XV асрлар Мовароуннаҳр санъати. Тошкент 2020. 91 бет.
2. Ш.Р.Ходжаев,Т.Г.Филимонова, М.Р.Ахметзянов. А.Р.Ходжаев Ремесленное производство средневекового Хутталя институт истори. Душанбе-2020 177 ст.
3. Мухаммаджон Исомиддинов. Сополга битилган тарих. Тошкент “фан” 1993. 41 бет.
4. Проф. Р.Х.Муртазаева, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. Ўзбекистон тарихи. Тошкент 2010. 142 бет.
5. Давлат Эрмидажи Тўплами(Санкт-Петербург, Россия), Иккинчи қисм VIII-XV асрлар Мовароуннаҳр санъати. Тошкент 2020. 91 бет.
6. Государственный музей востока Туркестан. В старых фотографиях и керамике 31 стр.
7. Шовосил Зиёдов. Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори, тарих фанлари доктори, доцент Марказий Осиё—ислом санъати ўчоғи, Манба: “Халқ сўзи” газетаси 2022 йил 1 ноябрь, № 235 (8297)
8. Муножат Мўминова. Ўрта асрлар кулолчилик маҳсулотларидаги битиклар нимани англатади? Янги Ўзбекистон.17 март 2023. 602 сони.
9. Алиева Сурайё Шариповна. Эстетика исламской поливной керамики Узбекистана. доктор искусствоведения, ведущий научный сотрудник институт Искусствознания АН РУз, Республика Узбекистан. International scientific journal «Grail of Science» |No5(June, 2021.)
- 10.Ш.Пидаев. Кулоллар маҳалласи. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти Аохеология институти. Қадимий Термиз. Тошкент «Фан» 2001. 24-28 бетлар.